

## OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI AMALGA OSHIRISHDAGI ZAMONAVIY KUCH VA VOSITALAR

**Idiev Asqar Abdurashidovich**  
*Mayor Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi*

Tarixdan ma'lumki, ommaviy tartibsizliklari ma'lum bir davlatning boshqaruv tizimiga ta'sir qilishda tashqi va ichki kuchlarning siyosiy vositasi bo'lib kelgan. Bugungi kunda, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va "Boshqariladigan xaos" konsepsiysi kabi noharbiy kuch vositalarining paydo bo'lishi ko'cha tartibsizliklarni amalga oshiruvchi kuchlar faoliyatning samarali bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Hozirda, ma'lum bir mintaqaga yoki davlatda yuz berayotgan ommaviy tartibsizliklar jamiyatdagi ijtimoiy salbiy hodisa sifatida ayrim tashqi kuchlar tomonidan turli vosita va usullarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Dastavval ommaviy tartibsizliklarni amalga oshiruvchi kuch va vositalar xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ular asosan tartibsizlik amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lgan yirik davlatlar maxsus xizmatlari yoki mamlakat ichidagi destruktiv kuchlar (muxolifat, jinoiy guruhlar, ekstremistik tashkilotlar yoki biron narsadan norozi kayfiyatdagi shaxslar) bo'lishi mumkin. Ko'pgina hollarda, mamlakat ichkarisidagi destruktiv kuchlar ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishda yirik davlatlarning yordamchisiga aylanadi va natijada tartibsizliklarni amalga oshiruvchi tashqi va ichki kuchlarning o'zaro bir maqsad yo'lida birlashish holati kuzatiladi.

Geosiyosiy jihatdan dunyoda rivojlangan davlatlar, rivojlanayotgan va qoloq davlatlarga ajratiladi. Bunda, geosiyosiy jarayonlarda asosan rivojlangan davlatlar sub'ekt sifatida ishtirok etsa, rivojlanayotgan va qoloq davlatlar esa ob'ekt sifatida ishtirok etadi. Sub'ekt davlatlari ob'ekt davatlarni o'ziga bo'ysundirish, ta'sir doirasida ushlab turish yoki ularning manfaatiga xizmat qiladigan boshqaruv hokimiyatini o'rnatish uchun doimiy qo'poruvchilik faoliyatini olib borishadi. Bu holatga tadqiqot ishi nuqtai nazardan baho beradigan bo'lsak, sub'ekt davlatlar ob'ekt bo'lgan davlatlar hududida yuqorida ko'rsatib o'tilgan qo'poruvchilik faoliyatini amalga oshirish uchun ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Misol uchun, 2011 yilda Arab davlatlarida boshlangan tartibsizlik jarayonlarida bir qator geosiyosiy sub'ekt davlatlar o'z ta'sirini ko'rsatganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Bunda, asosan AQSH, Xitoy, EI, Turkiya va Rossiya omili etakchilik qilganligi ta'kidlanadi. 1 SHu bilan birga, jahon siyosatida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tubdan o'zgarishi, yangi "kuch markazlari"ning yuzaga kelishi, ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan-ochiq da'volari mintaqaviy va etnik mojarolar sonining ortishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda etakchi siyosiy kuch markazlari o'rtasidagi dunyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirish borasida o'zaro raqobatining kuchayishi natijasida "rangli inqiloblar", "demokratiya eksporti", "axborot hujumi" kabi xavfsizlikka tahdidlarning noan'anaviy turlari yaqqol namoyon bo'ldi.

Ommaviy tartibsizliklarning keltirib chiqarishda tashqi kuchlarning faol aralashuvini dunyoning ayrim hududlarida yuz berayotgan tartibsizliklarni tahlil qilish natijasida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2011 yilda Arab davlatlarida boshlangan tartibsizliklarda bevosita AQSHning qo'li borligi ta'kidlanadi, Arab davlatlarida Oq uy ma'muriyati ikki maqsadga etishishga intilgan2: - mintaqadagi energetik resurslar ustidan nazorat o'rnatish; - ushbu mamlakatlarda boshqariladigan elitani shakkantirish. Jumladan, rasmiy Vashington bu maqsaddagi harbiy harakatlarini 2001-2003 yillarda Afg'oniston va Iroqda boshlagan bo'lib, bu orqali SHimoliy Afrika va YAqin SHarqdagi davlat tuzumlarni beqarorlashtirish to'lqiniga tayyorgarlik olib borgan. [1] O'sha paytda mazkur ro'yxatga Tunis, Misr, Liviya va Suriya davlatlari ham kiritilgan. Ayni paytda, Tunis, Misr, Liviya davlatlarida rangli inqiloblar tashkillashtirilib, avtoritar tuzumlar yo'qotildi, Suriyada esa beqarorliklar haligacha davom etib kelmoqda.

Bundan tashqari, AQSH hozirda Eron bilan bo'layotgan o'zaro nizolarda ham, yuqoridagi csenariyni takrorlashga urinmoqda. Xususan, Eron hududida sun'iy tartibsizliklar tashkil etib, mamlakatda siyosiy beqarorlik holatini vujudga keltirishni ko'zlamoqda. 2019 yil 15 noyabr kunida Eronda benzin narxining oshishiga qarshi norozilik namoyishlari boshlandi. Olomonning tinch namoyishlar ko'rinishida boshlangan harakati keyinchalik ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketdi. G'arb davlatlari ommaviy axborot vositalari Erondagi bu vaziyatni hukumatning tinch namoyishchilarga qarshi kuch ishlatgani bilan baholasa, YAqin SHarq va post sovet makoni ommaviy axborot vositalari bunda bevosita AQSH qo'li borligini ta'kidlashdi. Xususan, AQSH sobiq Prezidenti D.Tramp o'z tvitter sahifasida fors tilida "Anchadan beri jafo chekayotgan, biroq jasur eronliklarga: Men prezidentligimning boshidan siz bilan birgaman va mening ma'muriyatim ham siz bilan birga bo'lib qoladi. Biz sizning norozilicingiz ortidan sinchkov kuzatmoqdamiz va mardligingizdan ilhomlanamiz"1 deb aytib o'tadi. Reuters agentligi xabariga ko'ra, Eron oliv etakchisi Ali Xomanaiy mamlakatdagi noroziliklarda tashqi dushmanlarni ayblaydi. Uning fikricha, "Ayrim odamlar hukumatning ushbu qaroridan xavotirga tushgan, lekin xalqni g'alayonga da'vat etib, ko'chalarga o't qo'yayotganlar bezori, bizning fuqarolar emas. Revolyusiyaga qarshilar va Eron dushmanlari hamisha mamlakatda tartibsizlik keltirib chiqarishga uringan va bu ishni qilishda davom etaveradi".[2] Iran.ru sayti ma'lumoti bo'yicha, Erondagi norozilik namoyishlari vaqtida politsiya qo'lga tushirgan bezorilar o't qo'yilgan har bir bino uchun 60 AQSH dollari miqdorida mukofotga ega bo'lganini tan olgan. 19 noyabrdagi huquq-tartibot organlari brigadasi generali Baxsh Ali Komroniy Solih ham ushbu ma'lumotlarni tasdiqlagan. U noroziliklar vaqtida bu kabi uyushtirilgan salbiy holatlarni oldini olish uchun ham fuqarolar ogohlagini kuchaytirish lozimligini ta'kidlagan.

XXI asr ommaviy tartibsizliklarni tashkil etishda muhim rol ijtimoiy tarmoqlarga tegishli ekanligini ta'kidlash zarur. Bugungi kunda hayotimizni hech bir sohasini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu texnologiyalar natijasida

ko'plab ilmiy-texnikaviy yutuqlarga erishish bilan bir qatorda insonlar uchun zararli oqibatlari ham ko'zga tashlanmoqda. Xususan, hozirda norozilik namoyishlari o'tkazish va ommaviy tartibsizliklar tashkil qilishda global internet tarmog'i imkoniyatlari dushmanlar uchun qo'l kelmoqda. Olomonni tartibsizliklarga undash, uning agressivligini oshirish, auditoriyani kengaytirish ishlari bevosita internet tarmog'i bilan bog'liq. Dunyoda ro'y berayotgan ommaviy tartibsizliklarning deyarli barchasida internet tarmog'i muhim vosita sifatida ishtirok etmoqda. Jumladan, 2020 yil 7 fevral kuni Qozog'iston Respublikasining Jambul viloyati Korday tumanida yuz bergen ommaviy tartibsizliklarda Ichki ishlar vaziri E.Turgumbaevning so'zlariga ko'ra, "avvaliga mushtlashuvda 70 ga yaqin odam qatnashgan. Bir vaqtning o'zida ig'vogarlar va hodisa guvohlari ro'y berayotgan voqealarni video tasvirga olib, messenjer va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarni noqonuniy harakatlarga chorlagani sababli qo'shni aholi punktlaridan yana 300 ga yaqin odam etib kelib mojaro jiddiy tus olgan. [3]

2019 yil jinoyatchilarining Xitoy qamoqxonalariga ekstraditsiya qilish imkonini beruvchi bahsli qonunga qarshi Gonkongda boshlangan tartibsizliklar yangi aloqa va tashviqot vositalaridan foydalanish bo'yicha tajriba o'tkazish uchun ideal muhitga aylandi. Gonkong aholisining 92 %dan ortig'i doimiy internetga ega bo'lib, aholining 80% o'zlarini ijtimoiy axborot vositalarining faol foydalanuvchilari deb hisoblashadi. Bu erda internet messenjerlaridan Twitter, Facebook, Telegram, WhatsApp, foydalanuvchilari juda ko'pchilikni tashkil qilib, asosan ushbu internet tarmoqlari orqali tartibsizliklarni tashkil qilish va o'tkazishda o'z samarasini berdi. Tartibsizliklar jarayonida ushbu ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkilotchilar turli yangi uslublardan foydalanishganini qo'rishimiz mumkin. Birinchi, namoyishlar paytida kanallarda tartibsizliklar o'tkaziladigan joylar aks etgan xaritalar tezda e'lon qilinadi. Bu faollarga yordam kerak bo'lishi mumkin bo'lgan joylarni oldindan bilihga imkon beradi. Xaritalarda namoyishchilar egallab olgan hududlar, politsiya bilan to'qnashuvlar bo'layotgan manzillar, politsiya kuchlaridan yashirinish mumkin bo'lgan joylar, kerakli materiallar sotib olishingiz uchun do'konlar va dorixonalar belgilangan bo'ladi. [4]

Ikkinchi, kanallarda aholi ruhiyatini ko'tarish, jangovarligini oshirish uchun ayrim to'qnashuvlarda politsiya ustidan qozonilgan muvaffaqiyat aks etgan video yoki fotosuratlar joylab boriladi.

Uchinchi, yangi rejalshtirilgan mitinglarning o'tkazilish joylari, vaqt, qatnashuvchilar taxminiy soni va boshqa ma'lumotlar aks etgan jadvallar har kuni yangilanib kanallarga joylashtiriladi.

To'rtinchi, namoyishchilarni jalb qilishning eng qulay usulidan biri bu namoyishlar vaqtida politsianing aholiga nisbatan shafqatsizligi (kaltaklash, rezina o'qlar va gaz granatalardan foydalanish) aks etgan video yoki fotosuratlar joylashtirilib, hukumatning namoyishchilar bilan hech qachon murosa qilmasligi to'g'risidagi bayonotlar doimiy takrorlab turiladi.

Beshinchı, muxolifatga xayrixoh bo'lgan shifokorlar va tibbiyot xodimlari politsiya tomonidan namoyishchilarga qarshi foydalanilayotgan ko'zni yoshlantiruvchi granatalarning inson organizmiga xavfli ta'sir qilishini ko'rsatuvchi grafikalar tayyorlanib, jamoatchilikka e'lon qilinadi.

Oltinchi, hukumat vakillari va politsyaning har qanday harakatini obro'sizlantirish, buning uchun mansabdor shaxslarning bir-biriga zid bo'lgan bayonotlari bo'rttirib ko'rsatiladi. Masalan, politsyaning muxolifat namoyishchilariga nisbatan hokimiyatni qo'llab quvvatlovchi shaxslarning ko'pligi to'g'risidagi bayonoti, aslida yolg'on ekanligi to'g'risidagi dalillar keltiriladi.

Ettinchi, norozilik namoyishlarida turli kasb egalari ishtirok etayotganligi alohida ta'kidlanib, ularga maxsus seriyali plakatlar tarqatiladi. Xususan, ta'lim xodimlari, bank xodimlari, tibbiyot xodimlari va boshqalar.

Sakkizinchı, namoyishchilarining onlayn makoni uchun turli ramziy belgilar yaratiladi. Misol uchun, Gonkong namoyishchilarining sevimli virtual qahramoni bu "Pepe" laqabli baqa bo'lgan. 35

To'qqizinchı, ijtimoiy tarmoqlardan nafaqat norozilik kompaniyasi materiallarini tarqatish uchun, balki muxolifat harakatlarini muvofiqlashtirish uchun ham foydalanilmoqda. Bunga misol qilib iqtisodiy boykot qilish taktikasini keltirish mumkin. Barcha noroziliklarga xayrixoh bo'lganlarga davlat banklari bilan ishslash, hokimiyatni qo'llab quvvatlaydigan ishlab chiqaruvchilarda tovarlar sotib olish qat'iyan rad qilinadi. Namoyishchilar uchun o'z mablag'larini naqd pulga yoki kriptovalyutaga aylantirib to'lov kartalaridan foydalanish cheklanadi.

O'ninchı, "suv kabi bo'ling" bu mashhur jang san'ati ustasi Bryus Liga tegishli bo'lib, bu namoyishchilar tomonidan shior qilib olingen va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqatilmoqda. Buning ma'nosi shuki, norozilik paytida xuddi shisha ichidagi suvday moslashuvchan bo'lish kerak, ya'ni to'qnashuvlar vaqtida politsiya kuchlari son jihatdan ustunligi sezilsa darhol chekinish va kichik guruhlarga bo'linib turli tomonlarga tarqalish kerak, shunda ularni hibsga olish imkonsiz ishga aylanadi. Global internet tarmog'i imkoniyatlaridan tashkilotchilar tomonidan nafaqat namoyishlarni rivojlantirish uchun, balki Xitoy rasmiy hukumati va keng jamoatchiligi Gonkong tartibsizliklarini bevosita boshqa davlatlar ta'siri ostida bo'layotganligi, hukumat kuchlari norozilik namoyishchilarini qatnashchilariga nisbatan adolatli faoliyat olib borayotganligi borasidagi dalillar bilan antimiting siyosatini qo'llashda ham foydalanmoqda.

Jumladan, Gonkongni tashqi kuchlar ta'siridan saqlash to'g'risidagi "Gonkongni himoya qil" nomli qisqa metrajli video rolik 5 mlndan ortiq namoyishlarga qarshi chiquvchilarni to'pladi. Ular "Politsiya xodimlari, biz sizni qo'llab-quvvatlaymiz" shiori bilan harakat olib borishdi. [5] Ayrim politsiya xodimlarining qahramonona harakatlari bo'rttirilgan holda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi. Masalan, Lyu Ser ismli politsiyachiga bir guruh tartibbuzarlar hujum qilib, uzoq vaqt kaltaklashgani surati butun Xitoy xalqi tomonidan namoyishchilarining vahshiyligi qoralandi. Xitoy

hukumatining rasmiy tezislarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilishda, ya'ni "Namoyishchilarning pul evaziga ko'chaga chiqishayotgani", "Namoyishchilar politsiya bilan kurashda Amerika quroldidan foydalanayotgani" kabi suratlarni e'lon qilishmoqda. Tahlil natijasiga ko'ra, Gonkongdagi tartibsizliklar davrida internet vositasi orqali targ'ibotda rasmiy hukumatga qaraganda oppozitsiyaning yaqqol ustunligi ko'rinoqda. Pekin keng ko'lamli tashviqot urushi uchun qarshi turishga tayyor emasligi Gonkongdagi tartibsizliklar vaqtida o'z aksini topdi.

Ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishda yana bir muhim vosita bu "Aqli olamon" va "Boshqariladigan xaos" konsepsiyalari bo'lib, ushbu tushunchalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq ravishda tartibsizliklar bo'lishidan manfaatdor tashqi kuchlarning o'ziga xos quroliga aylanmoqda.

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab, yangi "ijtimoiy" texnologiyalarni shakllantirish va dunyodagi geosiyosiy jarayonlarni tartib bilan emas, balki tartibsizlik prizmasi orqali boshqarish davri boshlandi. «Sovuq urush» barham topgach, bundan keyingi jahon siyosiy jarayonlarining insonparvarlik yo'nalishida rivojlanishiga keng jamoatchilik va ilmiy doirada ishonch paydo bo'lgan edi. Biroq, dunyoning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan turli xildagi inqilobiy ko'tarilishlar va shunga o'xshash hodisalar dunyoning global xarakterdagi geosiyosiy konfliktlar bilan to'qnashganligidan dalolat bermoqda. Ushbu geosiyosiy konfliktlar natijasida, xalqaro siyosiy vaziyat ancha murakkablashib, xalqaro munosabatlarning asosiy sub'ektlari o'rtasidagi kurash shiddatli tus olmoqda. Ushbu geosiyosiy kurash jarayonlarida yirik davlatlar yangi texnologiyalar ishlab chiqib, bunda asosiy e'tiborni harbiy kuch qo'llashni istisno etishga qaratishmoqda.

1992 yilda S.Man Vashingtondagi Milliy harbiy kollej jurnalida "Xaos nazariyasi va strategik fikrlar" nomli maqolasini nashr qildi hamda xoas tushunchasi bilan geosiyosiy jarayonlarni o'zaro bog'lab "Boshqariladigan xoas" nazariyasiga asos soldi. Muallif bu nazariya bilan AQSH milliy manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida dushman davlat uchun "Tanqidni eksplatatsiya qilish" va u erda "Tartibsizlik yaratish" zarurati xususida fikr bildirdi. S.Mann muvaffaqiyatli xalqaro siyosatning kaliti keskin vaziyatni aniqlab olish va undan unumli foydalanishda deb biladi. U ayrim holatlarda ushbu keskin vaziyatdan qochish kerak, ayrim holatda esa siyosiy qayta qurishni amalgalga oshirish maqsadida uni qo'llab-quvatlash lozim, deydi. Keskin vaziyatni keltirib chiqarishning bir nechta imkoniyatlari haqida gapirib, ularning ichida maqsadga erishishda eng qulay usuli individual aktorlar yoki olomonning konfliktli energiyasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, konfliktli energiya inson tabiatida, u global tizimning asosiy bo'g'iniga aylangandan buyon mavjud. Manning ta'kidlashicha, insonlarda konflikt energiyasini kamaytirish yoki ularni AQSH milliy xavfsizligi maqsadlariga mos ravishda yo'naltirish uchun insonlardagi dasturiy ta'minotni o'zgartirish lozim. Axborot sohasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, dasturni o'zgartirishning aggressiv usuli "virus" bilan bog'liq. S.Manning fikricha, g'oya dasturlangan inson uchun «virus» hisoblanadi. S.Manning ta'kidlashicha, bunday

g'oyaviy virusdan AQSH o'zining quroli sifatida foydalanmoqda. O'sha joyda demokratik plyuralizm va inson huquqlarini himoya qilish kabi g'oyalar bilan zararlashni tanlaydi. Kerakli mamlakat yoki mintaqada xaosni amalga oshirishda noharbiy vositalardan (OAV, ta'lif, madaniyat kabilar) foydalanish zarurligini ta'kidlaydi va geosiyosiy raqibning hududida xaosni vujudga keltirishning asosiy mexanizmlari sifatida S.Mann quyidagilarni keltiradi:

- 1) liberal demokratiyani yoyish;
- 2) mamlakatda bozor islohotlari amalga oshirilishiga erishish;
- 3) siyosiy elitaning hayot standartlarini ko'tarish;
- 4) jamiyatda milliy qadriyat va g'oyani siqib chiqarish.

Ushbu doktrinaga ko'ra, har qanday siyosiy tizim mustahkam emas. Demokratik tuzumga ega mamlakatlardan ko'ra avtoritar tuzumga ega mamlakatlarda xaos yuzaga kelishga moyillik bir muncha kuchli. SHundan kelib chiqib, AQSH o'zini ilg'or demokratik davlat deb hisoblab, avtoritar tuzumga ega davlatlarda demokratiyani o'rnatish yo'li orqali xalqaro barqarorlikni ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi sifatida ko'radi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, S.Manning "Xaos nazariyasi" ga asoslangan ta'lomi dunyoda AQSHning hukmronligini ta'minlashga qaratilgan geosiyosiy konsepsiya hisoblanadi. Uning fikricha, AQSHning hukmronligini an'anaviy strategik yondashuvlar bilan emas, balki noan'anaviy bo'lgan "Xaos nazariyasi" orqali ta'minlash mumkin. Biroq, ushbu nazariy inshootlarning amaliyotda samarali siyosiy doktrinaga aylanishi uchun tegishli texnik baza, va eng avvalo ko'pchilik uchun ochiq bo'lgan axborot texnologiyalari kerak edi. Bu 2000 yillar boshida sodir bo'ldi robototexnika, simsiz aloqa va internetga kirish uchun qulay bo'lgan smartfonlarning paydo bo'lishi tufayli jamiyatda insonlarning o'zaro bog'liqlik kuchaydi.

2002 yilda Govard Reyngold o'zining "Umnaya tolpa: novaya sotsialnaya revolyusiya" deb nomlangan kitobida "Aqli olomon" tushunchasini qo'lladi. "Aqli olomon" (inglizcha smart mob) – yuqori texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'z-o'zini tuzadigan ijtimoiy tashkilotning noan'anaviy shakli bo'lib, u aynan aniq bir maqsadni ko'zlagan holda, doimiy nazorat asosida boshqarib boriladigan odamlar guruhini tashkil qiladi. "Aqli olomon" texnologiyasining birinchi bo'lib aynan uyushgan jinoyatchilik va boshqa mamlakatlarning rejimini o'zgartirishga harakat qiluvchi maxsus xizmatlar foydalanishgan. Hozirda, tezda va global miqyosda tarqalishga erishgan aqli olomonning bir nechta turlari mavjud. Ularning eng sodda va keng tarqalgan turi Flesh-mob – ya'ni oldindan rejalashtirilgan ommaviy aksiya bo'lib, odatda zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etiladi. Bunda, katta odamlar to'dasi to'satdan oldindan kelishilgan joylarda paydo bo'ladi va belgilangan harakatlarni bajarib, tezda tarqalib ketadi. Ikkinchisi turi "Shoping-bunt" (kriminalnyiy karnaval) - ijtimoiy tarmoqlar orqali tartibsizliklar uyushtirilib, talonchilik, o'yin-kulgi maqsadida bino va avtomobilarni o'qqa tutish yoki o't qo'yish. Uning o'ziga xosligi shundaki, u tartibsizlikdan zavqlanish, rohatlanish uchun o'tkaziladi, bunda hech qanday siyosiy maqsad ko'zlanmaydi. Aqli olomoning uchinchi turi "Tinch isyon"

(mirnyu bunt) - aholi va jahon hamjamiyati nazarida amaldagi hukumatni delegitimizatsiya qilishni maqsad qilgan, ijtimoiy tarmoqlar orqali uysushtirilgan siyosiy harakatlardir.[7] “Aqli olmon” tushunchasining to’liq ma’no mazmunini olib berishda uni “An’anaviy olomon” bilan o’zaro farqli jihatlarini ajratib ko’rsatish samarali hisoblanadi.

1. “An’anaviy olomon” shakllanishi uchun “shok stimuli” (bevosita ishtirokchilarning hayotiy manfaatlariga ta’sir qiladigan voqeal) kerak bo’lsa “Aqli olomon” shakllanishi uchun oldindan puxta tuzilgan reja asosida bo’ladi;
2. struktura jihatdan “An’anaviy olomon” agressiv (buzg’unchi) tarqoq ko’rinishida bo’lsa, “Aqli olomon” uchun nisbatan birikgan shaklda harakatlanish ustun;
3. “An’anaviy olomon”da boshqaruv faqat shakllanish va harakat boshlanishning dastlabki bosqichida bo’lsa, “Aqli olomon”da boshqaruv doimiy ravishda amalga oshiriladi;
4. ishtirokchilar soni bo'yicha “An’anaviy olomon” 20 000 gacha bo’lsa, “Aqli olomon” 500 000 gacha bo'lishi mumkin;
5. ishtirokchilar hissiy holati an’anaviyda ancha kuchli bo’lsa, “Aqli olomon” ko’p ham hissiyotga berilmaydi.

Bugungi kunda ommaviy tartibsizliklar kelib chiqarishi mumkin bo’lgan omillar o’rganilganda, dastlab biron-bir omil norozilik namoyishi keltirib chiqarishi, keyinchalik esa norozilik namoyishida keskinlikning ortishi bilan ommaviy tartibsizlikka aylanib ketishi holatlari kuzatilmoqda. Keskinlikning ortish holati, ushbu noroziliklar vaqtida davlatning namoyishchilarga tazyiq o’tkazishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning olomonga kuch ishlatishi, olmonning talabi qondirilmasligi bilan izohlanishi mumkin. Dunyoda bo’lib o’tayotgan ommaviy tartibsizliklarning paydo bo’lish mexanizmiga e’tibor qaratsak, barcha ommaviy tartibsizliklarda o’xhash jihat mavjud. Bu aholini jumbushga keltiruvchi davlatning o’z fuqarolariga nisbatan qilgan noto’g’ri harakati (vahshiyligi) hisoblanadi. Masalan, 2019 yil 6 iyun kuni Moskvada “Meduza”ning maxsus muxbiri Ivan Golunov politsiya tomonidan narkotik moddalar savdosi aybi bilan hibsga olindi, lekin keyinchalik Golunov sumkasidan va uyidan topilgan narkotik moddalar politsiya tomonidan atayin tashlab qo’yilganligi, uning tanqidiy ruxdagi jurnalistik materiallari tufayli bu ish qasddan uysushtirilganligi isbotlangandan so’ng butun mamlakatda tartibsizliklarning kelib chiqishiga sabab bo’ldi. Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashning o’ziga xos jihatlaridan biri shuki, tartibsizliklar vujudga kelgandan so’ng uni bartaraf qilish imkonsiz jarayon bo’lishi mumkin. SHuning uchun ham, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishdan ko’ra, uning paydo bo’lishiga imkoniyat yaratuvchi holatlarni aniqlash va zarur chora tadbirlar belgilash muhim jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlab olish lozim. Soha mutaxassislarining fikricha ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilganda, ularni quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin.

Birlamchi omillar:

1. davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi;
2. ishsizlik darajasining yuqoriligi;
3. mamlakatda muttasil davom etib kelayotgan beqaror siyosiy vaziyat;
4. mamlakat hududlardagi turli xil milliy-etnik ziddiyatlar;
5. diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi;
6. milliy ozchilikka nisbatan diskriminatsiya mavjudligi.

Ikkilamchi omillar:

1. ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar;

2. qo'shni davlatlar hududidagi ommaviy tartibsizliklar ta'siri;

3. yirik davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz sayt (Ozodlik radiosи, Eltuz.com, Uz xalq harakati)larning provokatsion faoliyatları. Bundan tashqari, ushbu omillarni davlatga nisbatan ta'sir o'tkazish sub'ektlariga qarib ichki va tashqi omillarga ham ajratish mumkin. Ichki omillar: davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi, mamlakatda muttasil davom etib kelayotgan beqaror siyosiy vaziyat, ishsizlik darajasining yuqoriligi, diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi, milliy ozchilikka nisbatan diskriminatsiya mavjudligi, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar. Tashqi omillar: chegara hududlardagi turli xil milliy-etnik ziddiyatlar, qo'shni davlatlar hududidagi ommaviy tartibsizliklar ta'siri, yirik davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz sayt (Ozodlik radiosи, Eltuz.com, Uzxalqharakati)larning provokatsion faoliyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Mutaxassislar fikricha, ijtimoiy adolat mezonlarining qo'pol ravishda buzilishi, aholi ehtiyoji uchun zarur tovarlarning tanqisligi yoki ushbu mahsulotlar narxining keskin ko'tarilib ketishi, fuqarolar huquq va erkinliklarini oshkora poymol qilinishi va mansabdorlarga xos jinoyatlar (poraxo'rlik, byurokratizm va tamagirlilik)ning avj olishi, singari illatlar ham ommaviy tartibsizliklarni vujudga keltiradigan omil o'laroq qaraladi. Sanab o'tilgan mazkur holatlar o'rtasida davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning tangligi va aholining o'z vaqtida hal qilinmagan turli muammolar yuzasidan norozilik namoyishlarining keyinchalik ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi eng muhim sabablardan biridir.

2013 yil noyabr oyida Ukraina davlatida boshlangan evromaydon voqealarini bunga misol tariqasida olsak, ijtimoiy adolatsizlikning yuqori darjası, Ukraina aholisining daromadlari va turmush darajasidagi katta farq, ijro etuvchi, sud hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi korrupsiya aholining hukumatga nisbatan ommaviy noroziligiga olib kelganligiga amin bo'lamiz.

2018 yil oxirida Fransiya davlatida "sariq jiletlilar" nomi bilan mamlakatda neft mahsulotlari narxining oshirilishiga qarshi boshlangan tinch namoyishlar keyinchalik, prezident Emmanuel Makronning iste'fosini talab qila boshlashdi va natijada huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarshiligi bilan ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketdi. Ba'zi davlatlardagi siyosiy vaziyatning nobarqarorlik holatini ham kelgusida ommaviy

tartibsizliklarga turtki beruvchi kuch sifatida ko'rish mumkin. Bunga dalil sifatida, 2019 yil 4 oktyabrdan Iraq davlatida og'ir siyosiy vaziyat natijasida boshlangan ommaviy tartibsizliklarning keltirishimiz mumkin. Iraq so'nggi o'n besh yil davomida urush va diniy nizolar girdobida qolgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Iraqda 2018 yildan ishsizlik darajasi yiliga 7.9 % ga o'smoqda, ammo bu yoshlar orasida ikki barobardan ham yuqori taxminan 25 % dan ortiq. Deyarli 17% mehnatga layoqatli iroqliklar faqat vaqtinchalik ish topishlari mumkin, 2014 yildan buyon mamlakat aholisining deyarli to'rtdan bir qismi kuniga 1.9 dollardan kam mablag' evaziga yashamoqda. Har oltinchi oilada oziq-ovqat tanqisligi mavjud. Mamlakatni qayta tiklash uchun 88 mlrd dollar mablag' talab qilinmoqda. 1 Davlatdagi siyosiy beqarorlik holati haqida gapirliganda shunisi e'tiborliki bunda amalga oshirilgan ommaviy tartibsizliklardan nafaqat ichki kuchlar, shuningdek tashqi kuchlar ham o'z manfaatlarida yo'lida foydalanishadi. Bunday tartibsizliklar mamlakatga tashqi kuchlarning osonlik bilan suqilib kirishiga imkoniyat yaratadi. Siyosiy beqaror davlatlardagi ommaviy tartibsizliklar jarayonida, hukumatning tartibsizliklar ishtirokchilariga nisbatan kuch ishlatsi va bundan jabr ko'rgan aholining "huquqlarini himoya qilish" niqobi ostida suqilib kirish ssenariysi hozirda juda ko'p yirik davlatlar tomonidan qo'llanib kelinmoqda. Ommaviy tartibsizliklar jamiyatdagi turli qarama-qarshi milliy-etnik guruhlarning o'zaro ayirmachilik ruhidagi nizolari ta'siri ostida ham vujudga kelishi mumkin. Bunday turdag'i ommaviy tartibsizliklar ko'proq avvalgi sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlarga xos bo'lib, uning sabablari tahlil qilinsa, ularning aksariyatining ildizlari o'tmish xatolariga ya'ni, sobiq sovet tuzimi sovet davlatini tuzishda chegaralarni belgilashdagi amalga oshirilgan noto'g'ri siyosatiga va o'sha davrda yo'l qo'yilgan milliy kamsitishlarga, shuningdek, davlat siyosatini nomaqbul olib borilishi kabi holatlarda ko'rishimiz mumkin. [9] Misol tariqasida 1991 yilda boshlangan Ozarbayjon va Armanlar o'rtasidagi Tog'li Qorabog' mojarosini keltirishimiz mumkin. Tog'li Qorabog' avtonom viloyat sifatida 1923 yilda Ozarbayjon hududida tashkil etilgan bo'lib, bu erda asosan arman millati vakillari (89.24 %) istiqomat qiladi. Ular 1820 yillarda Chor Rossiyasi tomonidan bu erlarga ko'chirib olib kelingan. SSSR tarqalgandan so'ng armanlar separatistik harakatni boshlashdi va ikki millat ozarbayjon va armanlar o'rtasida millatlararo mojaro vujudga keldi. 1991 yil separatistik rejim Tog'li Qorabog' mustaqilligini e'lon qildi, lekin dunyoning hech bir mamlakati bu mustaqillikni tan olmadi. 1 Davlatlar o'rtasidagi chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish ishlarining to'liq yakunlanmaganlik holati ham chegara hududlarida yashovchi aholi punktlari o'rtasida o'zaro ommaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri bo'lmoqda. Misol uchun, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida 970 kmdan ortiq umumiyligi chegara bo'lib o'tgan yillar mobaynida uning 510 kmga yaqini demarkatsiya qilingan. SHu sababli ham chegara hududlarda bot-bot qurolli to'qnashuvlar bo'lib turadi. 2020 yil 07 may kuni Tojikiston va Qirg'iziston chegara hududida Qirg'iziston fuqarolarining bahsli hududda 4 hektar er maydonini o'zlashtirishlari natijasida u erda yashovchi qirg'izlar va tojiklar o'rtasida

to'qnashuv bo'lib ommaviy tartibsizliklar kelib chiqqan. Diniy konfessiya vakillari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvi natijasida vujudga kelgan ommaviy tartibsizliklarga 2020 yil 24 fevral 1 Tog'li qorabog' muxtor viloyati. [https://uz.wikipedia.org/wiki/T 46](https://uz.wikipedia.org/wiki/T_46) kuni Hindiston davlatida boshlangan voqealarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Hindiston parlamenti Pokiston, Afg'oniston va Bangladeshdan kelgan qochqinlarga fuqarolik berishni soddalashtirish bo'yicha Fuqarolik to'g'risidagi Qonunga o'zgartirish kiritdi, ammo bir shart bilan, ular induistlar, sikhlar yoki nasroniyalar bo'lishi mumkin faqat musulmon bo'lmasliklari kerak. SHu bilan bir vaqtida, ko'plab shtatlarda mahalliy musulmonlar Hindiston fuqarosi ekanini isbotlashi kerak bo'ladi. Agar ular kerakli dalillar keltira olishmasa, ular deportatsiya qilinishi mumkin. Ushbu qonun loyihasi hindistonlik musulmonlarni g'azablantirdi. Ularning fikricha, so'nggi tuzatishlar konstitutsiyaga zid, chunki rasman dunyoviy hisoblangan mamlakatda aholining bir qismi diniy e'tiqodidan kelib chiqib kamsitilmoxda. Hindiston shimoli-sharqiy shtatlari aholisi ham qonunga e'tiroz bildirgan — endi ular Bangladeshdan kelgan millionlab odamlar ularning shtatlarida doimiy qolib ketishidan xavotirda. Bu tuzatishlarni mahalliy aholi manfaatlariga zid deb hisoblagan musulmonlar ommaviy tartibsizliklarni boshlashdi.<sup>1</sup> Ommaviy tadbirlar vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlarining yoki ommaviy tadbirlar tashkilotchilarining tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yishi, turli noto'g'ri qarorlar qabul qilishi ham aholi tomonidan ommaviy norozilik holatlarini keltirib chiqarishi, bu esa kelgusida ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi ehtimolini oshirishi mumkin. 2017 yilda Sayilgoh ko'chasida o'tkazilgan rekord osh tadbirda tashkilotchilar tomonidan OAVda keng yoritilib, kirish chegaralanmagan degan ma'noda reklamalar berilganligi sababli, "Amir Temur xiyoboni" atrofida 120.000 dan ortiq fuqaro yig'ilib osh tarqatish bilan bog'liq jarayonda turli ko'ngilsizliklar sodir bo'lgan. 1 Hindlar nega Islomga qarshi isyon ko'tarmoqda. <https://sputniknews-uz.com/world/20200228/13562068> 47 2018 yil 30 iyunda YOshlar kuniga bag'ishlanib "Milliy" stadionda o'tkazilgan tadbirga kirish biletlari kassalarda tekin tarqatilmoxda mazmunida ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi natijasida 30.000 kishiga mo'ljallangan stadionga taxminan 50.000ga yaqin fuqaro tashrif buyurgan. Bu o'z navbatida, stadion hududiga kira olmagan fuqarolar tomonidan juda ham qattiq norozilikka sabab bo'lgan. SHu bilan birga, turli bayramlar va siyosiy tadbirlarda (miting va namoyishlar) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ommaga nisbatan turli qurollardan o'rinsiz foydalanishi kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklarning boshlang'ich bosqichida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kuch va vositalarning etarli darajada bo'lmasligi, olomonga tushuntirish ishlarini olib bormasdan, uning etakchilarini qo'lga olishga qaratilgan harakatlari ommani g'alayonga undovchi sabab bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda ommaviy tartibsizliklarni tashkil qilish bilan biror mamlakatda siyosiy beqarorlik holatini vujudga keltirishda yirik davlatlar axborot kommunikatsiya texnologiyalardan oqilona foydalanishmoqda. Jumladan, o'zlarining

manfaatlariga xizmat qiluvchi tendensioz saytlar orqali yashirin faoliyat bilan mamlakat aholisi ongiga salbiy axborot-psixologik ta'sir o'tkazib, ularda davlat boshqaruviga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otish va davlat siyosatiga qarshi norozilik chiqishlari uyushtirishga chorlovchi axborotlar tarqatilmoqda. Xususan, "Eltuz.com" saytining oxirgi 2 oy ichida (yanvar 2020 y. – fevral 2020 y.) nashr etilgan 134 ta materiallari mazmunan tahlil qilinganda tarqatilgan materiallarning 90 foizi O'zbekistondagi siyosiy hokimiyat faoliyatini qoralashga qaratilganligini ko'rish mumkin. Saytning 24 yanvar kuni nashr qilingan "Ketga tepadiganlarni ko'paytirish kerakmi?" nomli maqolasida yashash uylari buzilayotgan fuqarolarni o'z huquqlarini himoya qilish uchun bosh ko'tarishlari kerakligiga ochiqdan ochiq da'vat qilingan

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Isakov A.U. "Arab bahori"dagi tashqi kuchlar omili (Tunis, Misr, Liviya va Suriya misolida). Magistrlik diss. - T.: 2013; 2 Politika SSHA v muslimanskom mire na primere arabskix stran. – Moskva: IBV, IV RAN, 2009. – 350 s. 31.
2. Tramp podderjal protestы v Irane. <https://tsn.ua/ru/svit/> 2 Lider Irana obvinil vragov respublikи v aksiyax protesta.<https://www.reuters.com/article/us-iran-32-Iran.ru> sayti.
3. Turgumbaev E.Z. V nastoiaшee vremya situatsiya v Kordayskom rayone stabilizirovana. <https://www.fondsk.ru>.
4. Dudakov M.K. "Sifrovaya" Revolyusiya v Gonkonge rol onlayn-instrumentov v massovyx protestax 2019 g. Analiticheskiy doklad - Moskva.: 2019; -S. 3-4 34.
5. Dudakov M.K. "Sifrovaya" Revolyusiya v Gonkonge rol onlayn-instrumentov v massovyx protestax 2019 g. Analiticheskiy doklad - Moskva.: 2019; -S. 5-13 36.
6. Stiven M. «Teoriya хаosa i strategicheskaya мысл» — Steven R. Mann «Chaos theory and strategic thought» (1992). <http://www.dtic.mil/cgi-bin> 3.
7. 1. Reyngold G. Umnaya tolpa: novaya sotsialnaya revolyusiya. — Per. s angl. A.Garkavogo. —M.:FAIRPRESS, 2006.-416
2. Sundiev I.YU. «Sotsialnye texnologii v massovyx besporyadkax kak sredstvo lokalizatsiya "upravlyaemogo хаosa. <http://spkurdyumov.ru/networks/socialnye-texnologii-v-massovyx-besporyadkax/> 40
8. YAroshinskaya A. Ot Maydana do voyny s Rossiey. // Rosbalt. Data обращения 14 oktyabrya 2015. 44
9. 1 Kak i pochemu nachalis protestы v Irake. <https://www.bbc.com/russian/news-49945488> 45